

BIOLOGIYAN FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI.

Kurbonova Marguba Yo‘ldashevna.

*Namangan Viloyati “Turan International University”ning biologiya fani
o‘qituvchisi.*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12741753>

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot jaroyonida zamonaviy metodlar yordamida biologiya fani o‘qituvchisining xususiyatlari tahlil qilib o‘tildi. Biologiyani o‘qitish metodikasi pedagogika fani, fan sifatida didaktika bilan uzviy bog‘liqdir. Biologiya o‘qitish metodikasi maktab biologiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan. Ta‘lim va tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqdi. Biologiyani o‘qitish metodikasi psixologiya bilan chambarchas bog‘liq, chunki u bolalarning yosh xususiyatlariga asoslangan. Biologiya darslarida o‘quvchilarning to‘laqonli o‘quv–bilim jarayonining sub’yektiga aylantirish yo‘llarini qamrab olishi kerak.*

Kalit so‘zlar: *metod, uslub, o‘qitish metodikasi, didaktik usullar, biologiya, botanika, anatomiya, zoologiya, loyihalash, statistika, matematika, zamonaviy metodlar pedagogik yondashuv, psixologik holat.*

Kirish

Bugungi kunda rivojlanayotgan umumiy o‘rta ta‘lim tizimida biologiya fani o‘qituvchisini tayyorlash ta‘lim miqyosida dolzarb hisoblanadi. Biologiyaning rivojlanishi va uning yutuqlarini jamiyat hayotiga tatbiq qilinmoqda. Vaholanki maktabda biologik ta‘limning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida, ta‘lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari, organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi va bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar uchun o‘quv jarayoni, bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O‘qituvchi ta‘lim jaroyonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o‘qitishdan ko‘zda tutilgan ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirish orqali shaxning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘qituvchi uchun ta‘lim jaroyoni o‘quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog‘langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan umumlashtirib, tegishli holatlarga o‘zgartirishlar kiritadigan ish jaroyoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg‘un ravishda tashkil etilgandagina o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi

asosini tashkil etadi, shu sababli bu masalani chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama va natijalar

Ta‘lim dargohlarida biologiya fani o‘quvchilarida, ilmiy dunyoqarashini ya‘ni dunyo va inson, inson va olam o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi eng umumiy qarashlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u shaxsning hayotiy dasturini, e‘tiqodini, qiziqishlarini belgilaydi. Biologiyani o‘qitish jaroyoniga hozirgi holatiga muvofiq ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish voqelikning yaxlit idrok etishning tabiiy ehtiyoji bilan bog‘liq holda falsafiy muammolarga qiziqishi ortgan, o‘rta maktab o‘quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega. Maktab biologiyasi boshqa fanlarga o‘xshamagan holda, tabiat hodisalariga tizimli va tarixiy yondashuv birligini bilim kuchini ko‘rsatishga yordam beradi. Biologiya o‘qitish jaroyonida maktab o‘quvchilarining dialekt tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda ularda organik dunyoning ilmiy manzarasi, hayotning tarixiyli va uning harakat tizimidagi tabiatshunoslik siklining yetakchi fanlardan biridir, chunki u shaxsning shakllanishida va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.


Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi: O‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini birgalikda, hamkorlikda bajarib, o‘quv-tajriba maqsadiga erishishdir. Mazkur texnologiya, o‘quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o‘z fikrini bayon etish, asoslash va isbotlash, mantiqiy fikr ustida ko‘nikmalarini tarkib toptirish, o‘quv bahsi v

O‘qituvchi hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining nazariy metodlaridan foydalanish yo‘llarini, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini o‘quv bahsi va munozaralarini samarali tashkil etish yo‘llarini egallagan bo‘lishi lozim.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi quydagi metodlarga ajratib o‘rganiladi



Guruhda o‘qitish metodi (R. Slavin).

Bunda o‘quvchilar teng ikki guruhga ajratiladi, bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a‘zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzusidan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishga e‘tiborni qaratadi. Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish metodi (R.Slavin. 1986 yil).

Bu metodda, kichik guruhlar 4 nafar o‘quvchidan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari, to‘rtta qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqni ma‘lum bir qismini bajaradi.

Zig-zag yoki Arra metodi

Mazkur metodda kichik 6-8 o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganilgan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi, mazkur topshiriqning bittasini bajaradi va shu qismi bo‘yicha “mutahassis”ga aylanadi. Bu metoddan foydalangan darslarda o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi.

“Mutaxassislar” tayyorlash guruhi.

Mutahassislar tayyorlash guruhi. Ushbu metoddan foydalanib, o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha o‘quv materiallari to‘rtta qismdan iborat bo‘lsa darsda qatnashayotgan 32 ta o‘quvchi dars boshlanishidan oldin 4 xil rangdagi kartochkalar yordamida har biri, 8 ta o‘quvchidan iborat bo‘lgan “mutaxassislar” guruhiga ajratiladi. Ular o‘zlariga tegishli o‘quv topshiriqlarini bajaradilar va shu qism bo‘yicha “mutaxassislar”ga aylanadilar. “Rangli kartochkalar”ning har birining orqa tomonida 1 dan 8 gacha raqamlar yozilgan bo‘lib, barcha raqamli kartochkalardagi raqamlar yigindisi, sinfdagi o‘quvchilar soniga teng bo‘ladi.

“Mutaxassislar” uchrashuvi guruhi.

“Mutaxassislar” uchrashuvi kartochkalarining orqa tomonidagi raqamlar asosida 8 ta guruh tashkil etilib, bu guruhlar har xil raqamli 4 hil rangdagi kartochkalarga ega bo‘lgan o‘quvchilardan iborat bo‘ladi. Mazkur uchrashuvda “Mutaxassislar” o‘zlari egallagan bilimlar kiradi “archa” tikanlari ketma-ket kelganidek navbat bilan avval 1-guruh mutaxassislari keyin 2, 3 4 –guruh mutaxassislari o‘rtoqlariga tushuntiradi. Ushbu guruhlarda o‘quv materiallarining 4 ta qismi mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi, so‘ngra o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan topshiriqlar, yaxlit holga keltirilib, guruhlar o‘rtasida savol-javob, munozara o‘tkaziladi.

Loyihalash texnologiyasi

Loyihada ko‘zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko‘ra, tadqiqot harakteridagi loyihalar, ijodiy harakterdagi, ijodiy rolly loyihalar; amaliy harakterdagi loyihalar, izlanish va mo‘ljall olishga mo‘ljallangan loyihalar.

Loyihalash harakteriga ko‘ra; aniq natija olishga mo‘njallangan loyihalar; ko‘p yo‘nalishli natija olishga m‘njallangan loyihalar.

Loyihalash texnologiyasining turlari

Loyiha muddatiga ko‘ra; qisqa muddatli va uzoq muddatli loyihalarga ajratiladi.

Loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar soniga ko‘ra; bir sinf o‘quvchilariga mo‘njallangan loyihalar shahar miqiyosida hal etilishiga mo‘njallangan loyihalar, mamlakat miqiyosida hal etilishiga mo‘njallangan loyihalar, dunyo miqiyosida hal etishi mo‘njallangan loyiha

Tadqiqot xarakteridagi loyihalar ishlab chiqish.

Loyiha mavzusi;

Qizil lola jamoasi monitoringini tuzish.

Loyiha maqsadi;

Qizil lola jamoasining hozirgi tarkibi, uning kelgusidagi o‘zgarishi va ularni saqlab qolish chora tadbirlarini belgilashdir.

Loyihada foydalaniladigan metodlar;

kuzatish, biologik statistika tajribalar o‘tkazish va umumlashtirish.

Topshiriqning mazmuni; agar qizil lola o‘sadigan maydonning 100 metrda 100 ta lola uchrasa ,shu maydonda lolaning soni 10 yil davomida qanday o‘zgarishini yillar bo‘cha hisoblab toping. Mazkur o‘zgarishlarning grafik asosida tasvirlang.

Eslatma !

Qizil lola ko‘sakchasida 6 ta urug‘ ekilib, urug‘dan chiqqan nihol -10 yilda gullaydi. Har bir tup lolada bir yilda piyozcha hosil bo‘lib, undan nihol 4-5 yilda gullaydi. Lola urug‘ining unuvchanligi 75% ni tashkil etadi.

Ijodiy harakterdagi loyiha ishlab chiqish.

Loyiha mavzusi; Odamning sutkalik ovqat ratsionini tuzish.

“Odam va uning salomatligi o‘quv kursidagi dars mavzusida odamning sutkalik ovqat ratsionida oqsil, yog‘, uglevodlar miqdori va ulardan ajratib chiqadigan energiya miqdorini aniqlash “ labaratoriya mashg‘ulotining kichik guruhlarda tashkil etib, ularga quydagi topshiriqlar tavsiya etiladi. 1- guruh topshirigi, o‘rta yoshli, aqliy va engil jismoniy mehnat bilan shugurlanuvchilar uchun bir kecha –kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

Ijodiy harakterdagi loyiha.

Ikkinchi guruh topshirig‘i. O‘rta yoshli, og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘urlanuvchilar uchun, bir kecha kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda, ularning ovqat ratsionini tuzing.

Uchinchi guruh topshirig‘i. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun, bir kecha-kunduzda sarf qilinayotgan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

To‘rtinchi guruh topshirig‘i. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun, bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

Mustaqil bajarish uchun topshiriq

Yer qobiqlari	Ta‘rif	tarkibi	Biosfera ahamiyati	uchun
Atmosfera				
Hitosfera				
Gidrosfera				

Xat jildi metodikasi

Bu metodikada masalan bir katta qog‘ozga eng muhim ma‘lumotlarni yozib, keyin uni bir necha bo‘laklarga qaychida bo‘lib, qirqib xat jildiga joylanadi. Xatni tuzilgan 5-6 ta guruh ishtirokchilarining, guruh bosliqlariga tarqatib beriladi. Xat jidi ichidagi bolaklar birlashtirilib o‘qilsa eng muhim ma‘lumotlar kelib chiqadi. Xar bir guruhdan bittadan talaba tushuntirib beradi. Bu metodda ham bolalar uchun qiziq bo‘lgan ma‘lumotni topgunicha harakati tezlashadi, qiziqishi ortadi, fikrini jamlaydi, kayfiyati ko‘tariladi.

Bu erga xat jildi, yani konvert chizib qo‘yiladi, va unga “ustozdan xat” deb yozib qo‘yiladi.

A-4 format oq qog‘oz metodikasi

Sinf xonasiga kirgandan so‘ng, bolalarni darrov fikrini jamlab olish uchun quydagi metod qo‘l keladi. 6 ta qatorga, 6 ta varoq kerak bo‘ladi, xar bir qatorda o‘tirgan qator boshidagi bolaga bir donadan oq qogoz beriladi. Berilgan qog‘ozga o‘tilgan mavzu bo‘yicha ma‘lumot yoziladi, har bir o‘quvchining yozgan ma‘lumoti keyingi o‘quvchida takrorlanmasligi kerak. Bu yerda, har bir o‘quvchi bir-birini ma‘lumotini o‘qiydi, va keyin o‘zi ma‘lumot yozadi, uni orqadagi o‘quvchiga uzatadi. Ohirida ma‘lumot yozgan o‘quvchi, y’ni har bir qatoridagi ohirgi o‘quvchi ma‘lumotlarni doska yonida o‘qib beradi.

Bu metodda o‘quvchilar darrov fikirlashga harakat qiladi, o‘ylaydi, izlanadi, takrorlaydi, bilimni mustaxkamlaydi va butun vujudi bilan darsga kirishib ketadi. Miyasi ishlab turgan vaqtda yangi mavzuni tusuhtirsangiz zo‘r qabul qiladi.

Yulduz metodi

Bu metodda mashur insonlarni masalan olimlarni, har bir qirraga qo‘yib, uni olib borgan ishlari xaqida gapirish mumkin.

Bu yerda yulduz rasmini chizib ketilsa yaxshii bo‘ladi.

Quvnoq sharlar metodikasi

Bu metodda 5 - 6 ta shar ichiga savol yozib, shar ichiga soling. Sharlarni shirib, o‘quvchiga otasiz va sharni olgan o‘quvchi, shar ichidagi bu savolga javob beradi. Ayniqsa, bunda dars o‘tishga halaqit beradigan o‘quvchiga otilsa, yaxshi bo‘lar edi. Agar bu o‘quvchi darrov javob topa olmasa dars ohirigacha izlanishi mumkin deyiladi. Shunday qilib darsga qiziqmagan o‘quvchilarni ham qiziqtirish mumkin. Bolaning darsdagi ishtirogi uchun doimo raxbatlantirib turish kerak.

Xulosa qilib, shuni aytamanki interfaol metodning an’anaviy metoddan farqli tomonlarini ko‘rib chiqishi lozim. Birinchidan, darsda mavzular bo‘yicha talab uchun qulay bo‘lgan dars turlari shaklida qo‘llaniladi.

Ikkinchidan, dars mavzusi bo‘cha bilm ko‘nikma, malakalarni shakillantirish mustaxkamlansa faol metodda dars mavzusi bo‘yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish ularni himoya qilish himoyalashga o‘rgatiladi.

Uchinchidan, o‘qituvchining vazifalari yangi mavzuni tushuntirish, mustaxkamlash, nazorat topshiriqlarini berishdan iborat bo‘lsa noanaviyda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab beriladi.

To‘rtinchidan, darsga tayorgarlikka, dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayorlash kabi talablar qo‘yilsa, interfaol metodda, interfaol dars ishlanmasi mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar va boshqa zarur vositalarni tayorlanadi. o‘quvchilar tayorgarligi esa oldingi dars bo‘yicha, vazifalarni bajarib kelish talablari berilsa, yangi metodda yangi dars mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma‘lumotlarni bilish talabi qo‘yiladi.

Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko‘p qismi shohada qilish, o‘z xulosalarini bo‘quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashinuvi, muayon qilish va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an‘anaviyda dars vaqtining ko‘p qismi o‘qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi o‘zlashtirishni nazorat qilishga ketadi.

Darsning modul va algoritmlaridan an‘anaviy xar bir o‘qituvchi o‘zi qo‘llayotgan metodga muvofiq foydalansa, noanaviyda, har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o‘tkaziladi.

Beshinchidan, bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy usullari ananaviyda muloqat muhokama, muzokara, bahs, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa, noanaviyda muloqat, mutolaa mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil tarzida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta‘lim jaroyonidagi metodlar o‘qituvchi faoliyatini belgilovchi holatdir. Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek yangi mavzuni o‘rganish jaroyonida lokal texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biologiyani o‘rganishda lokal texnologiyadan “keyys”, “insert”, “vaster”, “ven diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruxlarlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varog‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlarning tiplari shakillaridan foylanish tavsiya etiladi.

REFERENCEC:

1. Sayidahmedov N. Redagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T. :o‘zMU. 2003- 66-bet
2. Rizoquylovna, B.M.T. (2001). Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 21-24.
3. Aminjanova, Ch.A. Mavlanova, D.A. (2022). Методика преподавания, методологические и организационные подходы в психологии в педагогике 8-11.
4. [www.o‘qituvchi.uz](http://www.o'qituvchi.uz)
5. www.kutubxona.uz
6. www.namdu.uz
7. <http://ziyonet.uz>
8. <https://new.tdpu.uz/>